

YANGI TAHRIRDAGI KONSTITUTSIYADA “MIRANDA QOIDASI” INSTITUTINING MUSTAHKAMLANISHI

Xakimova Dailorom Botir qizi

*Toshkent davlat yuridik universiteti Xususiy huquq fakulteti 1 bosqich
talabasi*

Email: khkimovadilorom7@gmail.com

***Annotatsiya:** O'zbekiston Respublikasi tarixida birinchi bor Konstitutsiyasiga katta o'zgarishlar kiritildi. Bularning barchasi fuqarolarning erkinligini va ularning burchlarini amalga oshirishda qulay shart-sharoitlar yaratilib bermoqda. Fuqarolar davlatga emas, davlat fuqarolarga xizmat qiladi degan prinsipga tayangan holda, yangiliklar kiritilib jahon standartlariga talab berila oladigan darajaga yetishish uchun islohatlar yaratmoqda. Ushbu maqolada yangi konstitutsiyanda miranda qoidasi haqida keng tushunchalar yoritilgan.*

***Kalit so'zlar:** konstitutsiya, miranda qoidasi, fuqarolik burchlar*

2023-yil 30-aprel sanasida O'zbekiston Respublikasida Konstitutsiyasi umumxalq referendum bilan yangi tahrirdagi konstitutsiyasini qabul qildi. Konstitutsiyaga tubdan o'zgartish va qo'shimchalar kiritildi. Bundan ko'rish mumkinki konstitutsiyada yangi kiritilgan moddalar qo'shimchalar xalq foydasi ko'zlab qilingan. Shular qatorida “miranda qoidasi”ni ta'kidlab o'tsak. Ushbu qoida birinchi bor O'zbekistonda 2009-yil 1- yanvardan e'tiboran joriy etilgan.

Xo'sh, o'sha hamma yuristlar va huquqni muhofaza qilivchi organlar kop bora aytayotgan miranda qoidasi nima o'zi? U nima uchun kerak va fuqarolarga qanday yordami tegishi mumkin? Keling ushbu savollarga javob topish uchun tarixga murojaat qilsak. “Miranda qoidasi” ingliz tilida Miranda warning degan ma'noni anglatib Vakolatli davlat organi xodimi tomonidan ushlanayotgan shaxsga ya'ni gumonlanuvchi, ayblanayotgan shaxsga uning sukut saqlash huquqini va shaxs

tomonidan aytgan har bir so'zi yoki hatti-xarakati sudda unga qarshi ishlatilishi mumkinligi haqida ogohlantirish. Bu qoida, o'ziga o'zi ko'rsatma bermaslik huquqini ta'minlash maqsadida AQSH da 1966 da yuzaga kelgan. Anniq qilib aytadigan bo'lsak, gumonlanuvchiga uning huquqlari to'g'risida ogohlantirilmasa, uning aytgan so'zlari dalil sifatida qabul qilinmaydi."Miranda qoidasi" Ernest Arturo Miranda nomi bilan bog'liq. AQSHning Arizona shtati mahaliy politsiyasi tomonidan Ernest Arturo Mirandani odam o'g'rilash va nomusga tegish jinoyatlarni sodir etganlikda gumon qilib,xibsga olgan. Mirandaga so'roq qilinishidan oldin uning gumonlanuvchi tariqasida huquqlari tushintirilmagani bois, u o'z huquqlarini bilmagan holda aybiga iqrorligini bildirgan. Uning bu ko'rsatuvidan esa uning aybi iqrorligini isbot sifatida foydalanilgan va sudlangan. Shundan so'ng, uning advokati sudga appelyatsiya bergan, sud esa Miranda o'z huquqlaridan habardor qilinmagan deb topilib, uning foydasiga oqlov hukmini elon qilgan va Miranda jazodan ozod qilingan. Sud qaroridan yuzaga kelgan norma esa dastlab AQSH amaliyotida "Miranda huquqlari" so'ng esa xalqaro huquqda "Miranda qoidasi" deb nom olgan. Hozirda, xalqaro huquq normasi o'laroq, dunyoning juda ko'p davlatlarida qo'llanilib kelinayotgan qoidadir.

"Miranda qoidasi" ning ahamiyati nimada?

"Siz sukut saqlash huquqiga egasiz. Aytagnlaringizning barchasi sizga qarshi sudda ishlatilishi mumkin va ishlatiladi".Gapirmaslik yoki ko'rsatuv berishdan bosh totish jinoyatda gumonlanib qo'lga olingan shaxsning asosiy huquqlaridan biridir. So'roqdan oldin bu huquq tushuntirilishi ulkan ahamiyat kasb etadi, zero aynan hibsdan keyin advokatsiz bo'lib o'tadigan so'roqlar ko'plab haq-huquqlar buzilishiga ilib keladi.

"Siz advokat bilan maslahatlashish huquqiga egasiz. Advokatingiz so'roq paytida ishtirok etishi mumkin". Shaxsiy advokat ishtiroki so'roqlarning qonun doirasida o'tishiga zamin bo'ladi, haq-huquqlar poymol bo'lishi oldini oladi. Shu bois, mazkur huquning so'roqdan oldin tushirilishi, buni qonunan majburiy qilib qo'yilishi so'roq jarayonida inson huquqlari himoyada bo'lishining muhim omilidir.

“Agar advokatning xizmatlarini to’lashga qodir o’lmasangiz, u sizga davlat tomonidan taqdim etiladi. Siz ushbu huquqlarni tushundingizmi?”. Jinoyatda gumon qilinuvchining shaxsiy advokati bo’lmasligi, ya’ni u shaxsiy advokat xizmatini to’lashga qodir bo’lmasligi uni advokatsiz so’roq qilishga imkon bermaydi-tergovchi uni davlat tomonidan beriladigan advokat bilan ta’minlashi kerak. Mazkur me’yor ham tergov jarayonida haq-huqular poymol bo’lmasligiga, noqonuniy haraktlar sodir etmasligiga xizmat qiladi.

“Siz ushbu huquqlarni tushundingizmi?” Jinoyatda gumon etilayotgan shaxs tergov oldidan unga aytilgan haq-huqularini tushungani tasdiqlanishi kerak. Bu Miranda qoidasining muhim nuqtasi bo’lib, qoidadan ko’zlangan maqsad hosil bo’lishi, rasmiyatchilikka aylanib qolmasligi uchun muhim omildir.

“Qo’ng’iroq qilish huquqiga egasiz!” Jinoyatda gumon qilinib qo’lga olingan shaxs “bir marta qo’ng’iroq qilish” huquqiga ega bo’ladi. Ya’ni, u o’z advokatiga yoki qarindoshiga qo’ng’iroq qilish huquqiga ega va bu imkoniyat unga yaratilib berishi shart. Agar u telefon qilishdan voz kechsa, uni ushlagan mansabdor shaxs uning oila a’zolariga qo’ng’iroq qilishi va uning ushlangani, qayerda saqlanayotgani, nimada aylanayotgani, advokat olish huquqi borligi va boshqa ma’lumotlarni berishi shart.

Bu qoidaning buzilishi, shuningdek, shaxsning himoyasiga doir boshqa huquqlari poymol bo’lgan holda so’roq qilinishi, boshqa tergov harakatlari o’tkazilishi gumon qilinuvchi, ayblanuvchi, sudlanuvchi pirovardida oqlanishiga sabab bo’ladi, to’plangan dalillar sudda nomaqbul dalil deb e’tirof etiladi.

Aksariyat holatlarida guvohi bo’lamiz, huquqni muhofaza qiluvchi organlar tomonidan shaxs qo’lga olinganda, u nima uchun ushlangani va qanday huqularga ega ekanligi unga tushuntirilmaydi, uning huquqlari ta’minlab berilmaydi. Huquqni muhofaza qiluvchi organlar o’z nomidan ko’rinib turibdiki, ularning asosiy vazifalaridan biri huquqlarni muhofaza qilish hisoblanadi. Shunday ekan, huquni muhofaza qiluvchi organlar o’z nomidan ko’rining turibdiki, ularning asosiy vazifalaridan biri huquqlarni muhofaza qilish hisoblanadi. Shunday ekan, huquni muhofaza qiluvchi organlarning o’zlari tomonidan bironing huquqlarining buzilishi

juda uyatli va og'riqli holat. Shaxsni ushlab chog'ida unga tushinarli tilda uning huquqlari va ushlab turilish asoslari tushuntirilishi, u istagan vaqtda sukut saqlash huquqidan foydalanishi, har bir shaxs jinoyat protsessining har qanday bosqichida, shaxs ushlanganida esa uning haraktalanish erkinligi huquqi amalda cheklangan paytdan e'tiboran o'z tanloviga ko'ra advokat yordamidan foydalanish bularning hammasi shaxsning huquqi hisoblanadi. Shaxsning yuqorida sanab o'tilgan huquqlari aynan huquqni muhofaza qiluvchi organlar tomonidan ushlab va tergov jaryonida buziladi yoki xavf ostida qoladi. Shaxsning sukut saqlash huquqi inson huquqlariga oid nufuzli xalqaro hujjatlarda ham aks etgan. Mazkur kafolat Fuqaroviy va siyosiy huquqlari to'g'risidagi xalqaro paktning 14- moddasiga "O'ziga o'zi qarshi ko'rsatuv berishga yoki o'zini aybdor deb tan olishga majbur qilinmaslik" qoidasida yanada rivojlantirilgan. Ta'kidlab o'tish lozimki, "Miranda qoidasi" bugungi kunda barcha davlatlar Konstitutsiyasi va qonunlarida hamda inson huquqlariga oid xalqaro hujjatlarda umume'tirof etilgan norma sifatida belgilangan. AQSH dan o'rnak olib, qator davlatlar o'z konstitutsiyalarida Yaponiya, Niderlandiya Ispaniya, Gretsiya, Xorvatiya, Rossiya, Gruziya, Ukraina, Qozog'iston, Moldava va boshqa davlatlar mazkur qoidani mustahkamlab qo'ygan. Masalan, AQSH Konstitutsiyasi 5- qo'shimchasida bironta shaxs hech bir jinoyat ishi bo'yicha o'ziga qarshi ko'rsatma berishga majbur qilinishi mumkin emasligi belgilangan. Ukraina Konstitutsiyasining 29- moddasi 4- qismida "hibisga olingan yoki qamoqqa olingan har bir shaxsga hibisga olingan yoki qamoqqa olinganligi sabablari kechiktirilmasdan xabardor qilinishi, uning huquqlari tushuntirilishi hamda hibisga olingan paytdan boshlab o'zini himoya qilish yoki qonuniy huquqga ega bo'lish imkoniyati berilishi va shaxs o'zi, oila a'zolari yoki yaqin qarindoshlari to'g'risida ko'rsatuv berishdan yoki biror narsani tushuntirishdan bosh tortgani uchun javobgar bo'lmasligi " belgilab qo'yilgan

Shuningdek, Flippinning 1987- yilgi Konstitutsiyasida "jinoyat sodir etganligi uchun tergov qilinayotgan har qanday shaxs sukut saqlash va o'z xohishiga ko'ra malakali va mustaqil advokatga ega bo'lish huquqi to'g'risida xabardor qilinishiga haqli" ekanligi qayd etilgan. Yaponiya Konstitutsiyasining 38- moddasiga ko'ra

hech kim o'ziga qarshi guvohlik berishi mumkin emas

Endi bu davlatlar qatoriga O'zbekiston ham qo'shildi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining bir necha moddalarida "Miranda qoidasi" normalari mustahkamlab qo'yildi. Jumladan:

Shaxsni ushlab chog'ida unga tushunarli tilda uning huquqlari va ushlab turilishi asoslari tushuntirilishi shart.(27-modda)

Gumon qilinuvchi, ayblanuvchi yoki sudlanuvchi o'zining aybsizligini isbotlash shart emas va istalgan vaqtda sukut saqlash huquqidan foydalanishi mumkin. Hech kim o'ziga va yaqin qarindoshlariga qarshi guvohlik berishga majbur emas (28-modda)

Har bir shaxs jinoyat protsessining har qanday bosqichida, shaxs ushlanganida esa uning haraktlanish erkinligi huquqi amalda cheklangan paytdan e'tiboran o'z tanloviga ko'ra advokat yordamidan foydalanish huquqiga ega (29-modda)

Jinoyat-protsessual qonunchiligi bo'yicha shaxsning aybli yoki aybsizligini isbotlash majburiyati alohida mas'ul mansabdor shaxslarga yuklatilgan. Ya'ni dastlabki tergovda shaxsga nisbatan ayblov tergovchi tomonidan e'lon qilinadi, sud muhokamasida esa ayblovni prokuror qo'llab-quvvatlaydi. Aynan shuning uchun ham, shaxsning aybli yoki aybsizligini isbotlash faqat mazkur shaxslar zimmasida. Gumon qilinuvchi, ayblanuvchi, sudlanuvchi esa isbotlash jarayonida ishtirok etishga majbur emas. Agar istasa, shaxs ushlangan vaqtdan to hukm chiqarilgunga qadar umuman sukut saqlash mumkin – bu uning hisoblanadi. Odatda, amaliyotda shaxs ushlanganda yoki unga nisbatan jinoyat ishi ochilganda u og'ir ruhiy holatga tushib, o'zini yo'qotib qo'yadi va o'z huquqlarini bilmaydi yoki bilsa ham to'liq anglay olmaydi. Bunday murakkab ruhiy holatda jinoyatda bor-yo'qligini isbotlash o'zining emas, tergov organlarining vazifasi ekanini tushunmagan fuqarolar o'ziga qarshi ko'rsatmalar hayotimizda ko'plab uchrab turadi, afsuski. Aynan shuning uchun ham shaxs o'zining aybsizligini isbotlab berishi shart emasligi va istalgan vaqtda sukut saqlash huquqidan foydalanishi mumkinligi qoidasining konstitutsiyaviy darajada mustahkamlanishi tergov organlari tomonidan shaxsni majburlash yoki unga har qanday bosim o'tkazish kabi

salbiy va qonunga xilof holatlardan himoya qiladi.

Fikrimizning yakuni sifatida aytishimiz mumkinki, “ miranda qoidasi” institutining konstitutsiyaviy mustahkamlanishi jinoyat ishi xolis tergov qilinishi va tergov organlari tomonidan har qanday g'ayriqonuniy harakatlar va taqiqlangan usullar qo'llanilishining oldini oladi, shaxsning huqularini ta'minlab beradi. Ushbu qoidaga ko'ra shaxsning huquqlari u yaxshi tushunadigan tilda tushuntirilishi talab etiladi. Shuningdek, mazkur qoida ushlangan shaxsga uning huquqlari real ta'minlanishini kafolatlaydi va unga nisbatan tergov organlari tomonidan aldov, noto'g'ri ma'lumot berish va boshqa har qanday qonunga xilof usullar qo'llanishiga yo'l qo'ymaydi. Shuningdek, mazkur qoidaning Konstitutsiyamizda o'z aksini topishi ushbu qoida to'la-to'kis va so'zsiz qo'llanishi uchun zarur huquqiy kafolat bo'lib xizmat qiladi.